



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

**LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

2023 yil 4-son

Volume 5, Issue 4, 2023



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2023

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:

(Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.f.d., (PhD), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.P.Qurbonov	<i>Mahallada ishsiz aholini ish bilan bandligiga ko'maklashish: mas'uliyat va imkoniyatlar</i>	6-17
K.J.Sodiqxo'jayev	<i>Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash</i>	18-26
H.A.Hakimov	<i>Fiskal va monetar siyosatning muvofiqligi va ularning mehnat bozori bilan aloqadorligi</i>	27-34

INSON KAPITALI

N.N.Shotursunova	<i>Inson kapitali rivoji – shaxs-jamiyat-davlat taraqqiyotining kafolati</i>	35-43
T.N.Azimov	<i>Methodological aspect of human capital assesment...</i>	44-55
G.U.Shomiyev	<i>Некоторые аспекты организационно - экономического механизма формирования человеческого капитала: международный опыт</i>	56-68
G.U.Shomiyev	<i>Совершенствование механизма формирования человеческого капитала в сфере оказания медицинских услуг: системный подход</i>	69-80

INSON TARAQQIYOTI

S.P.Qurbonov	<i>Qishloq hududlarida unumli bandlik tamoyillari asosida aholi daromadlarini oshirish imkoniyatlari</i>	81-92
---------------------	--	-------

MIGRATSIYA

D.K.Israilova	<i>Tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish</i>	93-111
----------------------	---	--------

INSON RESURLARINI BOSHQARISH

Z.Dj.Adilova	<i>HR brendingni rivojlantirish omillari va baholash usullari: xorijiy tajriba</i>	112-121
B.I.Adizov	<i>Oliy ta'lim muassasalarida "KPI" dan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari</i>	122-130
Z.M.Isaqova	<i>Davlat xizmatichilari faoliyati samaradorligini baholashda loyiha boshqaruvi standartlari</i>	131-141
D.A.Qurbonova	<i>Relationship between financial motivational mechanisms and employee performance at food industry enterprises</i>	142-149

B.E.Tagayev, X.N.Abdullayeva	<i>Raqamli iqtisodiyotga o'tish davrida liderlarni boshqarish orqali mehnat unumdorligini oshirish ...</i>	150-162
N.B.Tula	<i>Эффективное управление человеческими ресурсами на основе демографических данных ...</i>	163-169
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
Rohana Ngah, S.B.Goyipnazarov	<i>Tacit knowledge sharing and entrepreneurial orientation on organizational performance of micro businesses in Malaysia</i>	170-177
G.M.Abdulxayeva	<i>Tog' va tog'oldi hududlarini mintaqalash hududiy rivojlanishni tartibga solish vositasi sifatida</i>	178-189
N.A.Anvarov	<i>Развитие сельских территорий через агротуризм в Самарканде</i>	190-198
G.Sh.Karabayeva	<i>Стимулы для развития устойчивой экономики..</i>	199-207
D.Y.Matrizayeva	<i>Роль экономического управления в повышении эффективности управления объектами недвижимости</i>	208-215
G.U.Shomiyev	<i>Формирование человеческого капитала в контексте развития рынка медицинских услуг в Узбекистане</i>	216-226



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



MAHALLADA ISHSIZ AHOLINI ISH BILAN BANDLIGIGA KO'MAKLASHISH: MAS'ULIYAT VA IMKONIYATLAR

Qurbonov Samandar Pulatovich

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti doktoranti,
TDIU, “Inson resurslarini boshqarish” kafedrasida dotsent v.b., PhD

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a33

Annotatsiya. Tadqiqotda mahalla aholishi bandlik darajasi hamda daromadlarini mahallalar xususiyatidan kelib chiqib, mavjud imkoniyatlarni ishga solib solgan holda oshirish tadqiq etilgan. Bunda aholi ish bilan bandligi darajasini hududiy birliklar, xususiyatlari hamda amaldagi huquqiy va boshqa imkoniyatlar asosida oshirishda xalqaro tajribalarning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada qishloq va shahar mahallalarini rivojlantirish, bunda aholi bandlik darajasini oshirishga salbiy ta'sir etuvchi omillarni yumshatish va bartaraf etish, mahallada aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan islohotlar, tegishli ko'rsatkichlar va nazariy-ilmiy asoslar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: mahalla, mahallabay tizim, mahallada aholi bandligi, mahallalarni rivojlantirish, aholi bandligini oshirish imkoniyatlari, ishsizlarni kasbga o'qitish, malaka tizimi va kasbiy rivojlantirish, mahallada ish buruvchilar, mahalla hududida mehnat munosabatlarini takomillashtirish.

СОДЕЙСТВИЕ БЕЗРАБОТНЫМ В ТРУДОУСТРОЙСТВЕ В МАХАЛЯХ: ПОРУЧАТЕЛЬСТВО И ВОЗМОЖНОСТИ

Курбанов Самандар Пулатович

Докторант Института исследования рынка труда,
Доцент, к.э.н. кафедры «Управление персоналом», ТГЭУ

Аннотация. В исследовании изучалось повышение уровня занятости и доходов жителей махалля, исходя из особенностей махалли, используя имеющиеся возможности. Изучены конкретные аспекты международного опыта повышения уровня занятости населения исходя из территориальных единиц, особенностей и существующих правовых и других возможностей. Также в статье рассматривается развитие сельских и городских махалли, смягчение и устранение факторов, негативно влияющих на уровень занятости населения, реформы, направленные на повышение доходов населения махалля, соответствующие показатели и теоретические и научные основы.

Ключевые слова: махалла, система махалля, занятость населения в махаллях, развитие махалли, возможности повышения занятости населения, профессиональная подготовка безработных, система квалификации и повышения квалификации, работодатели в махаллях, улучшение трудовых отношений в махаллях.

ASSISTANCE TO THE UNEMPLOYED IN EMPLOYMENT IN THE NEIGHBORHOOD: GUARANTEE AND OPPORTUNITIES

Kurbanov Samandar Pulatovich,

DSc student of the Institute of Labor Market Research,

PhD, Acting associate Professor in

Department of "Human Resource Management", TSUE

Abstract. The study examined increasing the level of employment and income of residents of the neighborhood, based on the characteristics of the neighborhood, using available opportunities. Specific aspects of international experience in increasing the level of employment of the population have been studied based on territorial units, characteristics and existing legal and other opportunities. The article also discusses the development of rural and urban neighborhood, mitigation and elimination of factors that negatively affect the level of employment of the population, reforms aimed at increasing the incomes of the neighborhood population, relevant indicators and theoretical and scientific foundations.

Keywords: neighborhood, neighborhood system, employment in neighborhoods, development of neighborhoods, opportunities to increase employment of the population, vocational training of the unemployed, system of qualifications and advanced training, employers in neighborhoods, improvement of labor relations in neighborhoods.

Kirish

Mamlakatimizda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi aholi orasidagi mavjud kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy muhofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan ishsiz shaxslarni ishga joylashtirishga ko'maklashish va aholi mehnat daromadlarini oshirish asosida yuqori darajadagi farovonligini ta'minlashdir.

Ma'lumki, so'nggi yillarda davlat siyosatini markazdan mahalla darajasigacha yuritadigan vertikal tizimi yanada faollashib bormoqda. Bunday islohotlarni “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasini hayotga tadbiq etishda eng muhim tashkiliy-institutsional bo'g'in”ga aylangan [12] fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida amalga oshirish natijador usul deb baholanmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni “O'zbekiston-2030” strategiyasi” deb nomlangan 1-ilovasida 74-maqсад “Aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi “tayanch ko'pri”ka aylantirish” ekanligi belgilab berildi [2].

2021-yil 3-chorakda Markaziy bank xodimlari o'tkazgan so'rov natijalariga ko'ra, aholining aksariyat (70%) qismining asosiy daromad manbai ish haqi ekanligi ma'lum bo'lgan edi [13].

Mahalla aholisi bandligini oshirishda faqat davlat sa'y harakatlari bir tomonlama yondoshuv bo'lib qolmasligi, bunda ijtimoiy institutlar, xususiy sektor vakillari va boshqalarni ham faolligi muhim sanaladi.

Har bir mahallada kambag‘allik ta’sir doirasidagi aholi, ishga joylashtirishga muxtoj band bo‘lmagan aholi hamda ish qidiruvchi sifatida mehnat organlarida ro‘yxatda turgan shaxslar uchun maqbul keladigan ish joylarini mehnat bozori ehtiyojlarini tadqiq etgan holda kasbiy tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, bunda nafaqat milliy balki xalqaro mehnat bozoridagi talabni ham chuqur tahlil etish, iqtisodiyotning norasmiy sektorida band aholini “hufiyona bandlik” iskanjasidan olib chiqish bo‘yicha ta’sirchan choralarni ko‘rish pirivodida har bir mahallada aholi qonuniy mehnat daromadlarini ortishi, iqtisodiy o‘shishga hamda kambag‘allik darajasini sezilarli kamayishi uchun zamin yaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

“Mahalla” atamasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va u arabcha so‘z bo‘lib o‘zbek tilidagi “joy” ma’nosini bildiruvchi “mahallun” so‘zidan kelib chiqqan. U turli mintaqalarda “mahallot (joy)”, “guzar”, “jamo’a”, “elat”, “elod” nomlarida atalib kelingan. Ammo mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Shu bilan birga mahalla milliylikimiz timsoli hamda qadriyatlar va urf-odatlarini avlodlardan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, o‘zligimizni anglashga, milliy g‘urur va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. Qadim zamonlardayoq yurtimizda mahallalar ijtimoiy hamkorlik maskani sifatida sharqona demokratiyaning yadrosi bo‘lib xizmat qilgan [13].

Yurtimizda amaldagi mahalla instituti rasman fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi sifatida e’tirof etilib kelinmoqda. Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni 3-moddasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o‘z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda hal qilish borasidagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyat” [3] ekanligini belgilab qo‘yilgan.

Ma’lumki, 2023-yil 12-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-209-son Farmonni imzoladi. Bundan asosiy maqsad mahallalarni qo‘llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish, mahallabay ishlashga mas’ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini samarali tashkil etish va ularning hamkorligini ta’minlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasiga muvofiq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishda ko‘maklashishdan iborat ekanligi farmonda belgilab qo‘yilgan [4]. Ushbu farmonda “mahalla yettiligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar

etishda ko‘maklashish uyushmaning asosiy vazifalari ro‘yxatidan o‘rin egallagan.

Shuningdek, ushbu farmonda [4] “Mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan “mahalla yettiligi”ni tashkil qiladi” deb ta’kidlangan.

Bizning fikrimizcha, mahallaning ichki resurslari nafaqat moddiy va nomoddiy, balki inson resurslarini ham o‘zida mujassam etishi kerak. Bugun mehnatga layoqatli yoshdagi mehnatga layoqatli iqtisodiy faol aholidan iqtisodiyotda samarali va unumli foydalanilmasa, ertaga ular birin-ketin ijtimoiy muxofazaga muxtoj, mehnatga layoqatsiz aholi tarkibiga kirishi tabiiy holat ekanligi nafaqat “mahalla yettiligi”ni, balki har bir islohotchi va mehnat iqtisodchisini tashvishga solishi kerak.

Mahallada aholi bandligini oshirish, xususan bandlikning sifat ko‘rsatkichlariga urg‘u berish borasida ilmiy tadqiqotlar ko‘p bo‘lmasada, biroq aynan aholi bandligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, hududni rivojlantirish masalalari bo‘yicha ko‘plab manbalarga ishora qilish mumkin.

Mahallada aholi bandlik darajasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda avvalo O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 42-moddasida belgilanganidek, “Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani huquqiga ega” [1] ekanligini, hamda 44-modda “Sud qarori bilan tayinlangan jazoni ijro etish tartibidan yoxud qonunda nazarda tutilgan boshqa hollardan tashqari majburiy mehnat taqiqlanadi” [1] kabi talablarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik shartlari mavjud.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi Q.X.Abdurahmonov “Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot” nomli darsligida “Insonni ish bilan mustaqil band bo‘lganlar sirasiga kiritish uchun olingan daromad miqdori yoki mehnatda qatnashgan vaqti tarzidagi miqdor mezondan foydalanib bo‘lmaydi, chunki kishilarning manfaat, ehtiyoj va imkoniyatlari turlicha va ularni hamisha ham taqqoslashning iloji bo‘lavermaydi” [8].

Shu o‘rinda akademik Q.X.Abdurahmonov “Ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim mezoni ish bilan bandlikka bo‘lgan munosabatdir. Ish bilan bandlik kompleks ijtimoiy siyosatning ajralmas qismi, deb qaraladi. Ish bilan bandlik muammolarining ijtimoiyligi uning, eng avvalo, inson, uning manfaatlari va mehnat sohasidagi ehtiyojlariga qaratilganligi bilan belgilanadi” [8] deb ta’kidlab o‘tgan.

Rossiya Xalqlar do‘stligi universiteti Axborotnomasida e‘lon qilingan Chen Vey tadqiqot natijalariga [10] ko‘ra, aholi bandligi - ijtimoiy ishlab chiqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa bo‘lib, aholini ish joyi va bir vaqtning o‘zida insonni

yashashi uchun zaruriy mablag' bilan ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar sifatida jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchlari shakllanishini ta'minlaydi.

Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, “Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir[7].

Bu yerda muallif ishlatgan ta'minot, bu bir vosita, biroq ish bilan band bo'lish – insonning birdan-bir maqsadi emas, balki u moddiy va ma'naviy ne'matlarga bo'lgan ehtiyoji sababli mehnat bozorida ekanligini tushunish lozim. Inson o'ziga zarur bo'lgan ne'matlarga ega bo'lish uchun mehnat qiladi. Inson mehnatiga ijtimoiy bandlik talablari asosida yondashuv MDH davlatlari olimlarining barcha tadqiqotlarida ham ko'zga tashlanmaydi.

Professor G.K.Abduraxmanova o'z tadqiqotlarida aholini munosib mehnat tamoyillari asosida band bo'lishini konseptual tarzda shunday asoslaydi: “Munosib mehnat konsepsiyasi ijtimoiy mehnat munosabatlari sohasida inson imkoniyatlarini kengaytirishni, sifat jihatidan shaxsning ancha yuqoriroq ehtiyojlarini qondirishni hamda uni rivojlantirish, shuningdek, salohiyatini to'liqroq namoyon etishni anglatadi” [9].

Pokistonlik professor R.Islam ta'kidlaganidek, “aholini ish bilan bandligini ta'minlash iqtisodiy o'sishni va kambag'allikni kamaytirishning asosiy mexanizmi sifatida bevosita yoki bilvosita, ham makro, ham mikro darajadagi talabni rag'batlantirish bilan birga aholi uchun daromad keltiradi”[11].

Ish bilan bandlik nafaqat iqtisodiy tushuncha, balki ijtimoiy konsepsiya hamdir, chunki u inson bilan bog'liq bo'lib, uning ehtiyojlari, malaka va ko'nikmalarining rivojlanish darajasi, yashash darajasi va sharoitlari bilan bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy manbalarda o'z aksini topgan qishloq hududlarida unumli bandlik tamoyillari asosida aholi daromadlarini oshirish masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko'maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag'allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 3-dekabr kuni “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va

kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida”gi PF-29-son Farmoni imzoladi. Ushbu farmon ijrosi o'laroq, 2022-yil 1-yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi lavozimi ta'sis etildi.

Ushbu farmonda “Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan va ishsiz aholining, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarning qiziqishlarini o'rganish orqali ularni kasb-hunar va tadbirkorlikka o'rgatuvchi o'quv markazlariga yo'naltirish hamda o'qishni tamomlagan bitiruvchilarning bandligini ta'minlashga yordam berish” mahalladagi hokim yordamchisi asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishlaridan [6] biri sifatida belgilab qo'yildi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi 2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ro'yxatiga kirgan mahallalar, 2022-yilda hududlari kesimida ishlizlar va mehnat resurslari soni [16, 19]


№	Hududlar	2022-2023-yillar		2022-yil			
		Rivojlantirilishi ko'zda tutilgan mahallalar		Ishsizlar		Mehnat resurslari	
		Soni, birlik	Jamiga nisbatan, %	Soni, ming kishi	Jamiga nisbatan, %	Soni, ming kishi	Jamiga nisbatan, %
1.	Qoraqalpog'iston R.	252	4,8	1067,6	5,5	71,9	5,4
2.	Andijon viloyati	473	9,0	1780,8	9,1	130,5	9,8
3.	Buxoro viloyati	408	7,7	1074,7	5,5	75,8	5,7
4.	Jizzax viloyati	159	3,0	791,0	4,1	56,3	4,2
5.	Qashqadaryo viloyati	511	9,7	1813,4	9,3	124,2	9,3
6.	Navoiy viloyati	211	4,0	570,6	2,9	35,7	2,7
7.	Namangan viloyati	328	6,2	1588,3	8,1	107,9	8,1
8.	Samarqand viloyati	585	11,1	2164,8	11,1	152,5	11,4
9.	Surxondaryo viloyati	438	8,3	1465,4	7,5	103,6	7,8
10.	Sirdaryo viloyati	122	2,3	487,4	2,5	34,5	2,6
11.	Toshkent viloyati	712	13,5	1619,2	8,3	116,9	8,8
12.	Farg'ona viloyati	716	13,6	2097,8	10,7	153,9	11,5
13.	Xorazm viloyati	302	5,7	1050,9	5,4	73,7	5,5
14.	Toshkent shahri	67	1,3	1945,6	10,0	95,3	7,2
Jami		5284	100,0	19517,5	100,0	1332,7	100,0

O'zbekiston Respublikasida ishlizlikni kamaytirish, aholini daromadli ish bilan bandligiga ko'maklashish islohotlar markazidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Shunday ekan, mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ham hududlarda kambag'allikni qisqartirish, ishsiz shaxslarni ish bilan bandligiga ko'maklashish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi ko'zda tutuladi.

2022-2023-yillarda hududlar kesimida infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ro'yxatiga kirgan mahallalar, 2022-yilda hududlardagi ishlizlar va mehnat resurslari soni bo'yicha tahlil natijalari quyidagi holatlarni ko'rsatmoqda:

- 2022-yilda ishsizlar va mehnat resurslar bo'yicha hududlar kesimidagi umumiyga nisbatan foizli ko'rsatkichlari mos ravishda o'zaro tenglik tamoyillariga mos tushmoqda, ayniqsa Qashqadaryo viloyati (9,32% va 9,29%), Navoiy viloyati (2,68% va 2,92%), Surxondaryo viloyati (7,77% va 7,51%) va boshqa hududlar ko'rsatkichlari bunga yaqqol misol bo'ladi;


- 2022-2023-yillarda hududlar kesimida infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ro'yxatiga kirgan mahallalarning hududlar kisimidagi taqsimoti hamda 2022-yilda ishlizlik va mehnat resurslari ko'rsatkichlari o'rtasida ayrim hududlarda katta farqlar kuzatildi, ayniqsa 2022 yilda Buxoro viloyatida ishsizlar soning respublikadagi ulushi 5,69% (75,8 ming kishi)ni, mehnat resurslarining respublikadagi ulushi 5,51% (1074,7 ming kishi) tashkil etgan bo'lsa, infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ro'yxatiga kirgan mahallalar soni bo'yicha respublikadagi ulushi esa 7,75% (408ta)ni tashkil etgan, xuddi shunday nomutanosiblik Toshkent viloyatida (ishsizlar ulushi - 8,77%, mehnat rusurslari ulushi - 8,30%, infratuzilmasi rivojlantirish loyihasiga kirgan mahallalar ulushi -13,47%) ham kuzatilgan.



1-rasm. 2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ro'yxatiga kiritilgan mahallalar soni, birlik [16]

2021-yil 1-sentabr holatiga respublika bo'yicha mahalla fuqarolar yig'inlari soni 5 taga ko'payib, 9255 tani (2021-yil 1-iyul holatiga 9251 ta) tashkil etgan edi. Shundan 41 tasi shaharcha, 81 tasi qishloq, 164 tasi ovul, 8969 tasi mahalla fuqarolar yig'inini tashkil etgan [14].

Gazeta.uz rasmiy veb-sahifasi ma’lumotlariga ko’ra, 2022-yil may oyida mamlakatda mahallalar soni 9349 tani tashlik etgan [15] bo’lsa, 2022-yil noyabr oyida ushbu ko’rsatkich 9370 tani tashkil etgan [5, 16].



2-rasm. Hokim yordamchilari o‘z vazifalarini amalga oshirishda foydalanadigan moliyaviy instrumentlarning 2022-yil uchun manbalari, mlrd so‘m [17].

2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar dasturlari doirasida tadbirlar amalga oshirilishi rejalangan mahallalar soni 5284 tani tashkil etgan edi, bunda ichki yo‘llarni ta‘mirlash (3828,1 mlrd so‘m), ichimlik suvi ta‘minoti (2282,1 mlrd so‘m), oqova suv ta‘minoti (122,5 mlrd so‘m), elektr energiyasi ta‘minoti (120,9 mlrd so‘m), gaz ta‘minoti (49,2 mlrd so‘m), umumta‘lim maktablari (33,0 mlrd so‘m), maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (24,6 mlrd so‘m), sport obyektlari (37,0 mlrd so‘m) va boshqa tadbirlar (549,4 mlrd so‘m) uchun respublika bo‘yicha 2700 mlrd so‘m yo‘naltirilgan edi.

Ma'lumki, har bir mahallada hokim yordamchisi o'z vazifalarini to'liq va mukammal amalga oshirish uchun moliyaviy manbalarga tayanadi. Bunda maqsadli kreditlar, subsidiyalar, grantlar va tegishli jamg'armalar mablag'laridan samarali foydalanish uchun manbalar yaratildi.

Xususan, 2022-yilda mahallada hokim yordamchilari o'z vazifalarini amalga oshirishda foydalanadigan moliyaviy instrumentlarning manbalari etib quyidagilar belgilangan edi (2-rasm):

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan kreditlar — 10 trln so'm;

- aholining bandligini ta'minlash, ularning o'zini o'zi band qilishi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun ajratiladigan mablag'lar — 1218 mlrd so'm, shundan: Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan ish bilan band bo'lmagan aholiga tadbirkorlik qilish va o'zini o'zi band qilish uchun subsidiyalar, kredit resurslari va boshqa xarajatlar uchun — 785 mlrd so'm, ish bilan band bo'lmagan aholini kasb-hunarga, tadbirkorlik va hunarmandchilikka o'qishga yo'naltirish uchun — 210 mlrd so'm; Jamoat ishlari jamg'armasidan ishsiz aholini haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etish xarajatlari uchun — 222 mlrd so'm;

- fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan ajratiladigan subsidiyalar — 50 mlrd so'm;

- hokim yordamchilari tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun ko'zda tutiladigan mablag'lar — 250 mlrd so'm;

- “Saxovat va ko'mak” jamg'armasi, “Ayollar daftari” jamg'armasi, “Yoshlar daftari” jamg'armasi — 851 mlrd so'm [17].

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli foydalanishda yo'l qo'yilgan har qanday kamchiliklar ilmiy o'rganilishi, asoslanishi va o'z vaqtida, tezkor yechimlarga ega bo'lmog'i lozim. Ilmiy asoslanmagan har qanday xatti-harakat risk sifatida baholanadi. Ayniqsa, ishsiz, kambag'al va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar ko'magi uchun har qanday xatti-harakatlar riskdan himoyalangan bo'lmog'i lozim.

Xalqaro tajribalardan foydalanish, qaysidir ma'noda, mahallada ishsiz shaxslarni ish bilan bandligini ta'minlashga, aholi ish bilan bandligi va mehnat daromadlarini oshirishga imkon berishi mumkin. Masalan, Fransiya tajribasini oladigan bo'lsa, aholi ish bilan bandligiga ko'maklashishda konsalting ofislari xizmatidan foydalanadi va ushbu idoralar mamlakatning barcha hududlarida ishlaydi. Ular xodimlarning avvalgi ishdagi faoliyati tahlili; xodimning keyingi faoliyati uchun uch yoki to'rtta loyihani ishlab chiqish; mehnat bozoridagi talab va taklif dinamikasini o'rganish, ish beruvchilar bilan ishbilarmonlik munosabatlarini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish; ish bilan ta'minlash xizmatlari, korxonalar va kasaba uyushmalari o'rtasida ishchilar tanlovi bo'yicha munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish; ishchilarni jalb qilish bo'yicha taklif qilingan vakansiyalarni o'rganishdilar.

Mahallalarda shunday konsalting ofislarini joriy etish, bandlikka ko‘maklashish markazlaridan ko‘ra, aholi xonadonlariga yaqinroq va manfaatliroq bo‘lishi mumkin.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda ishsizlik nafaqasini olish huquqini ishlash istagi va ish, kasb-hunar yoki ta‘lim olish uchun minimal majburiyat bilan bog‘laydi. Slovakiyada ishlashga tayyorligini tasdiqlash va munosib ish topishga rozi bo‘lish faqat eng yuqori darajadagi qo‘llab-quvvatlash uchun ariza berishda talab qilinadi. Ish izlovchilar ish taklifini qabul qilishlari shartlari ayrim davlatlarda boshqasidan farq qiladi. Masalan, Chexiya va Germaniyada ish izlovchi ishsizlar tegishli mehnat organlar tomonidan taklif etilayotgan ishlar ularning malakalariga mos kelmasa yoki qisqa muddatli bo‘lsa ham, har qanday ishni qabul qilishlari kerak. Bunda asosiy maqsad – aholini daromadli qilish va boqimandalikka qarshi kurashish.

Kasb o‘rgatish tizimi muvaffaqiyatli bo‘lmasa, ba‘zi davlat soha faolligini oshirishni ta‘minlash uchun (majburiy) choralar ko‘rishadi. Mamlakatda kambag‘allikni qisqartirish, ishsizlikni kamaytirish, aholi bandligini va mehnat daromadlarini oshirishda fuqarolik majburiyatlarini shaxslarga yuklash ham ijobiy natijalar bergani amaliyotda isbotlangan.

2023-yil 26-sentyabr kuni mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan Prezident Sh.Mirziyoyev o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida “Mahallalar – davlatimizning eng katta zamini” ekaniga urg‘u berdi [18]. Shuningdek, endilikda har bir mahallada “Mahalla yettiligi” tizimi ish boshlashi ma‘lum qilindi.

Manbalarga [20] ko‘ra, endilikda aholi uchta ijtimoiy daftarga kiritiladi, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masala mahallaning o‘zida hal qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy daftarlar uchun beriladigan mablag‘lar bandlik, tadbirkorlik va kasanachilik jamg‘armalaridan har bir mahallaga taqsimlanadi. Ya‘ni, mablag‘ni ishlatish mahallaning o‘zida, “yettilik” ixtiyorida bo‘ladi.

Xulosa va takliflar

Ma‘lumki, mahallalarida aholi ish bilan bandlik darajasini oshirish islohotlar markazidagi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, u keng miqyosdagi davlat dasturlari va maqsadli strategik yo‘nalishlarni o‘zida qamrab oladi. Hozirgi kun mahallalarda aholi bandligi darajasini oshirishda bir qancha asosiy yo‘nalishlarga alohida ustuvorlik berish kerak. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Avvalo, mahalla boshqaruv tizimini izchil rivojlantirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bunga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish, boshqaruv tizimini tubdan yaxshilash, aholiga sifatli davlat va nodavlat xizmatlari ko‘rsatish tizimini tubdan yaxshilash orqali erishish mumkin.

Ikkinchidan, “mahalla yettiligi” sohasi bo‘yicha malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Mahalla aholisini talabini qondiradigan sohasi bo‘yicha yetarli tayyorgarlik, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim.

Uchinchidan, mahalla infratuzilmasini tubdan yaxshilash lozim. Ayniqsa, yo'llar, elektr energiyasi va internet aloqasi kabi mahalla infratuzilmasini rivojlantirish biznes operatsiyalarini osonlashtirishi, shu asosida mahalladagi tadbirkorlar bozorlarga kirishi, ishsiz fuqarolar esa internet tarmoqlarida ish izlashi yanada yaxshilanishi, hamda mahalladagi mavjud istiqbolli tadbirkorlik sohasiga investitsiyalarni jalb qilishi tezlashishi mumkin.

To'rtinchidan, mahallalarda ham mahalliy qiymat zanjirlarini rag'batlantirish lozim. Xom-ashyo mahalliy sharoitda qayta ishlanadigan va sotiladigan mahalliy qiymat zanjirlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash mahalladagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilagan mahsulotlar qiymatini oshirish va aholi bandlik imkoniyatlarini yaratish imkonini beradi.

Beshinchidan, mahalla hududlarida joylashgan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash yaxshi natijalar beradi. Ayniqsa, qishloq va shahar posyolkalarida kichik va o'rta tadbirkorlikka subsidiyalar, soliq imtiyozlari va marketingini qo'llab-quvvatlash mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirishi mumkin.

Oltinchidan, qishloq va shahar mahallalari o'rtasida muntazam va har tomonlama aloqalarni mustahkamlash va bunda munosabatlar barqarorligini ta'minlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Qishloq va shahar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash tovarlar, xizmatlar va odamlar oqimini osonlashtirishi va qishloq hududlaridagi mahallalar yanada rivojlanishiga yordam berishi mumkin.

Yettinchidan, mahalladagi ishsiz shaxslar uchun kasbiy tayyorgarligi, malaka va ko'nikmasi asosida kunlik ishlar va pullik jamoat ishlariga jalb etish bo'yicha masofaviy platformalar yaratish va uni mahallalararo tizimli ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish kerak.

Sakkizinchidan, mahalla aholisi bandligini oshirish bo'yicha davlat-xususiy sherikchiligi asosida xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish va unda “mahalla yettiligi” faolligini rag'batlantirish juda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston — 2030” Strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida”gi Qonuni. 15.03.2013-yil. Manba: <https://lex.uz/docs/2156899#2157124>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 12-dekabrda “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-209-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/6705763>

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-408-son Qarori. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/6250699>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2021-yil 3-dekabr kuni “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi PF-29-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/5758437>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi //Xalq So‘zi gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, № 19 (7521).

8. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт / Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. – Т.: ЎзФА «ФАН» нашриёт давлат корхонаси, 2019. – 592 б. 253-257-бет.

9. Абдурахаманова Г.К. Кичик бизнесда аҳолини муносиб меҳнат тамойиллари асосида иш билан таъминлашни такомиллаштириш. Автореферат. –Тошкент, “Иқтисодиёт ва таълим” журнали ва ТДИУ нашриёт бўлими таҳрири, ТДИУ, 2016. – 77б. 13-бет.

10. Чэн Вэй. Современный китаи: проблема занятости // Вестник РУДН, серия Международные отношения, 2009, № 3, с.61-75.

11. Islam, R. The nexus of economic growth, employment and poverty reduction: an empirical analysis issues in employment and poverty Discussion Paper, No.14. Geneva: International Labour Organization, Recovery and Reconstruction Department, 2004. P37.

12. Маҳалла – кеча ва бугун. Манба:https://uza.uz/ru/posts/mahalla-kecha-va-bugun_464621?q=%2Fposts%2Fmahalla-kecha-va-bugun_464621

13. Истеъмол кайфияти шарҳи, 2021 йил III чорак. Манба:https://cbu.uz/upload/iblock/d75/Istemol-kayfiyati-sharhi_III_chorak.pdf

14. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-nechta-mahalla-bor>

15. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/05/17/mahallas/>

16. Маҳаллалар инфратузилмасини яхшилаш орқали 20 млн аҳоли учун қулай шарт-шароитлар яратилади — Танзила Нарбаева. Манба:<https://www.gazeta.uz/uz/2022/11/10/narbaeva/>

17. “Onlayn Mahalla” - elektron platformasi ma’lumotlari. Манба:<https://online-mahalla.uz/>

18. “Mahalla yettiligi” – unda hokim yordamchilarining o‘rni qanday? Манба:<https://www.uzade.uz/uz/news/view/384>

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. Манба:<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>

20. “Mahalla yettiligi”ning vazifalari aniq belgilandi. Манба:https://uza.uz/oz/posts/mahalla-yettiligining-vazifalari-aniq-belgilandi_524528

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz